

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 7



IMFAKTOR
PAGES

JULY | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 7-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-7

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-7

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 7 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-7>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарров Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Филология фанлари

TO‘RAYEVA Sanobar Sulaymonovna

*Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
doktoranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8153455>

IBORALARDA BAHOLASH FUNKSIYASI

ANNOTATSIYA

Maqolada iboralarning baholash funksiyasi haqida fikr yuritiladi. Har bir ibora shaxs yoki narsa-buyumning xatti-harakatiga, holatiga xususiyatiga baho beradi. Aynan shu baho berish funksiyani, nutqni obrazli va ta’sirchan qiladi. Nutqimizda qo‘llaniladigan iboralarning baholash funksiyasi o‘z ta’sirchanligiga ega. Badiiy adabiyotda ijodkorning frazeologizmlardan unumli foydalanishi yaratilgan asar jozibadorligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: ibora, baholash, ot, fe‘l, adektiv, so‘z birikmasi, frazeologizm, badiiy adabiyot, sifatdosh, baholash funksiyasi, nutq, asar jozibadorligi.

Тураева Санобар Сулеймановна

*Национальный исследовательский институт Абдуллы Авлани
докторант*

ФУНКЦИЯ ОЦЕНКИ В ВЫРАЖЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается оценочная функция выражений. Каждая фраза дает оценку поведению, состоянию, характеру человека или вещи-предмета. Именно эта оценка делает функцию, речь образной и выразительной. Оценочная функция фраз, используемых в нашей речи, имеет свою выразительность. В художественной литературе продуктивное использование творцом фразеологизмов повышает привлекательность создаваемого произведения.

Ключевые слова: словосочетание, оценка, существительное, глагол, адеktiv, словосочетание, фразеология, художественная литература, прилагательное, функция оценки, речь, привлекательность произведения.

TORAYEVA Sanobar Suleymanovna

*National Research Institute named after Abdullah Avlani
doctoral student*

EVALUATION FUNCTION IN PHRASES

ANNOTATION

The article reflects on the evaluation function of phrases. Each phrase assesses the character of the person or thing—the behavior, state of the object. It is this assessment that makes function, speech figurative and expressive. The evaluation function of phrases used in our speech has its own effectiveness. In fiction, the artist's productive use of phraseologisms increases the attractiveness of the created work.

Keywords: phrase, assessment, noun, verb, adjective, vocabulary, phraseologism, fiction, adjective, evaluation function, speech, attractiveness of a work.

Har bir xalq madaniyati va milliyligini aks ettiruvchi til vositalaridan biri iboralardir. Iboralar nutq ta'sirchanligini oshirib tinglovchiga voqelik haqida to'liq tasavvurni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Nutq ta'sirchanligi nutqda iboralardan unumli foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Iboralarsiz nutq bo'm-bo'sh saroyga o'xshaydi, tinglovchini o'ziga jalb eta olmaydi. Iboralar nutq ta'sirchanligini oshirish bilan birgalikda shaxs va narsaning holatiga, xatti-harakatiga baho beradi. Tilshunos olim A.Rafiyev o'z tadqiqotlarida o'zbek tili iboralarining baholash funksiyasini o'rganib chiqqan [1].

Frazeologik ibora ma'nosining asosiy belgilaridan biri o'zbek tilidagi ko'pchilik iboralarga xos bo'lgan baholash ma'nosidir. Baholash ma'nosi turli ko'rinishdagi iboralarda turlicha namoyon bo'ladi. Baholash ma'nosi deganda shaxs yoki narsaga uning doimiy, o'zgarmas belgilaridan kelib chiqqan holda beriladigan ijobiy yoki salbiy xarakteristikani tushunamiz.

Tilda asl baholash ma'nosidagi va baholash maqsadida qo'llaniladigan iboralarni farqlash lozim. Asl baholash ma'nosidagi iboralar kontekstga bog'liq bo'lmagan holda ushbu xususiyatni doim saqlab qoladi. Baholash vazifasida qo'llanilgan iboralar esa bir matnda o'z xususiyatini saqlasa, boshqasida yo'qotadi. Boshqacha aytganda, asl baholash ma'nosi til birligi hisoblansa, baholash vazifasida qo'llanilgani nutq birligi sanaladi [2, B.12]

Chunonchi, *O'qituvchi bog'dan kelsa, u tog'dan keladi: Sparta davlatini so'rasa, Spartak yurishlariga o'tib ketyapti. "Og'zing qani?" desa, qulog'ini ko'rsatadi.* H.Nazir, "O'jar qizlar".

*Ammamning buzog'iga
O'xshab ketar bo'z bo'ri.
Tulkining tuzog'iga
Tushib qaynadi sho'ri.*

D. Kamoljonova "Bo'rining sho'ri"

Baholash ma'nosiga sintaktik chegaralangan ma'no sifatida qarash lozim, chunki bu ma'no so'z yoki ibora gapda kesim o'rnida qo'llanilgan holatdagina ifodalanadi. Zotan, baholash ma'nosi so'zlovchining shaxs yoki narsaga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi, shunga ko'ra bu ma'no tildagi modallikning bir ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi.

Tilda shu narsa aniqlanganki, qaysi iborada baholash ma'nosi kuchli bo'lsa, shu ibora asl nominativ funksiyadan shuncha cheklangan bo'ladi yoki aksincha. Masalan, ko'pgina ot qurilishidagi iboralarda (*ammamning buzog'i, otning qashqasi, anqoning urug'i, suhbatning guli* va boshqalar) nomlash funksiyasi baholash vazifasiga ko'chgan.

Baholash ma'nosiga nisbatan ot kesim doirasiga yaqin bo'lgan iboralar ko'proq ega bo'ladi.

Shuning uchun ham asl baholash ma'nosi, ayniqsa, ot va adektiv iboralar uchun xarakterlidir. Obrazli ot iboralar leksik-grammatik jihatdan ot so'z turkumiga xos bo'lib, gapdagi so'zlar bilan bog'lanishda harakatning sub'ekti va ob'ekti yoki predikat bo'ladi. Ular shaxs yoki prsdmetniig umumiy obrazli ma'nosiga ega bo'ladi, u yoki bu jihatdan uni baholaydi.

Tilimizda shaxs ma'nosini anglatuvchi *ammanning buzog'i, otning qashqasi, yumshoq supurgi, suyangan tog'i, katta odam, qo'li egri, qo'li gul* kabi va narsa ma'nosini ifodalovchi *peshona teri, xurmacha qiliq, anqoning urug'i* kabi iboralar baholash ma'nosida keladi. Nutqda shaxsga xos xarakter, xususiyatni umumlashtirib ko'rsatuvchi, belgi otini ifodalovchi *dili siyohlik, bosh og'rig'i, yurak o'ynashi* kabi iboralar ham sifatga, ham otga yaqin turadi. Aslida sifat ma'nosini anglatuvchi iboralarniig oxirgi komponentiga -lik ot yasovchi affiks qo'shish orqali shaxsning **ruhiy holatini** baholash ma'nosiga ega bo'lgan ot iboralar yaratiladi.

Bu turdagi iboralar birlik va ko'plikda ham kela oladi, ayniqsa; birlikda keluvchi shakli o'zbek adabiy tilida ko'p ishlatiladi. *Otning qashqasi, gapning po'stkallasi, gap tanobi, anqoning urug'i* kabilar nutqda doim birlikda ishlatiladi. Ko'plik shaklida qo'llanish obrazli ot iboralar uchun tipik emas.

Badiiy adabiyotda ot frazeologik birliklar struktur-sintaktik imkoniyatining kengligi tufayli turli stilistik-funksional maqsadlarda keng qo'llaniladi. Shaxs ma'nosini umumlashtiruvchi iboralar tasvirlanayotgan shaxs-personajni obrazli nomlab, shu orqali unga baho bersa, narsa nomini umumlashtiruvchi iboralar o'sha narsaga xos bo'lgan belgisi bilan ataydi [3].

Baholash funksiyasi faqat ot iboralargagina emas, fe'l turkumiga to'g'ri keluvchi iboralarga ham xos. Shu ma'noda fe'l iboralar odatdagi fe'llardan ish-harakat va holatni baholash, xarakterlash funksiyasiga egaligi bilan farqlanadi. Iboradagi tayanch fe'l komponentning ana shu xususiyati iboraning ustama, ko'chma ma'nosini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra fe'l komponent shakliining har qanday o'zgarishi yoki tushib qolishi umumiy ma'noning buzilishiga olib keladi, uni ot yoki ravish iboraga aylantiradi. Masalan, *paytavasiga qurt tushdi* frazeologizmidagi fe'l komponentni shartli ravishda *tushmoqda* shakli bilan almashtirsak yoki tushirib qoldirsak, ma'no butunlay o'zgaradi.

Tilimizdagi ko'pgina fe'l tipidagi iboralar narsa-buyum xususiyatini baholash yoki xarakterlashga xizmat qiladi. *Yerga ursa ko'kka sapchiydi* (sho'x), *og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi* (landovur), *sirkasi suv ko'tarmaydi* (nozik), *oralaridan qil o'tmaydi* (juda ahil), *tishi o'tmaydi* (yosh, tajribasiz), *boshi ko'kka yetdi* (xursand), *yuragiga qil sig'maydi* (xafa) kabilar shular jumlasidandir. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi iboralarning ma'nosi odatda fe'l bilan emas, balki boshqa so'z turkumlari bilan, asosan, sifat bilan ifodalangan. Shunga ko'ra, fe'l komponentning bunday iboralarning asl ma'nosini shakllantirishdagi roli katta emas [2, B.15].

Baholash tusining kuchayishi bilan bunday iboralarning fe'llik xususiyati kuchsizlanadi va zamon shakli o'z faolligini yo'qotadi, yoki aksincha, baholash ma'nosining kuchsizlanishi bilan shunga mos ravishda zamon shakli faollashib boraveradi.

Bu qonuniyat barcha obrazli fe'l iboralarga xosdir. Chunonchi, *Tuhmatchilarga haqiqatni isbot qilmoqqa urinish – ho'kizning qulog'iga tanbur chertmoq bilan barobar emasmi?* Oybek, "Nur qidirib", *Bu Salimjon Tursunovichning qizi emas. Shokir cholni ko'rib buvam deb yetaklab kelavergan, qoyilman-ye!* L. Mahmudov, "Bahona".

Fe'l iboralar harakatning to'g'ri-to'g'ri belgisi bo'lmay, balki harakat ta'sirchanligini o'zida mujassamlashtiruvchi obrazli, ko'chma ma'nodagi atamasidir. Baholash ma'nosini ifodalovchi bunday iboralarning ot kesim vazifasida qo'llanish imkoniyati shu bilan izohlanadi.

Bir butunligi, bo'linmasligi ko'zda tutilgani holda fe'l iboralarda shakl oluvchi va o'zgaruvchi komponent faqat fe'l komponent hisoblanadi. Fe'l komponent o'zgarishidagi imkoniyatni odatdagi fe'l bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Masalan: *o'pkasini qo'litiqlab, ko'ngliga tugdi, kapalagi uchdi, o'z yog'iga o'zi qovurildi* kabi frazeologizmlardagi fe'l komponentni boshqa sinonimi bilan almashtirib bo'lmaydi (qiyoslang: qo'litiqlab – quchib, tugdi – bog'ladi, uchdi – parvoz qildi, qovurildi – dog'ladi va boshqalar).

Har bir fe'l komponentning tuslanish shaklini olish imkoniyati iboraning umumiy ma'nosiga bog'liqdir. Shunga ko'ra, hech bir komponent so'z o'zgartiruvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarning jamiga ega bo'la olmaydi, ya'ni fe'l frazeologik iboralarning ko'pchiligi fe'lga xos grammatik shakllarini erkin o'zgartira olmaydi.

Masalan, *aravani quruq olib qochmoq* iborasidagi *qochmoq* fe'li iboraning ma'no birligini buzmaganda har xil qo'shimchalar bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Demak, fe'l komponentning yakka o'zi shu ma'noda hech qanday grammatik ma'noni ham, baholash ma'nosini ham ifodalay olmaydi. Bular hammasi bir butun fe'l frazeologik iboraga tegishlidir. Bunday iboralar ma'nosidagi baholash funksiyasi ma'lum grammatik belgilarni cheklash asosida yaratiladi. Baholash ma'nosidagi iboralarda zamon shakli cheklangan bo'ladi [2, B.14-15]. Masalan, *og'zidan bol tomadi* iborasi faqat o'tgan zamon shaklida keladi.

(*So'zlaridan hozirgina bol tomib turgan "mehmon" "mezbon"ga tashlandi.* L. Mahmudov, "Mehmon-mehmon")

Baholash ma'nosi kuchli bo'lgan fe'l iboralar gapda ega va hol bilan bog'lana olsa-da, ammo sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan aniqlovchi hamda to'ldiruvchi bilan sintaktik munosabatga kirisha olmaydi. Masalan: *sirkasi suv ko'tarmaydi, fig'oni falakka chiqdi, yuragiga qil sig'maydi, dami kesildi, suvdan quruq chiqdi, kapalagi uchdi* kabilar shular jumlasidandir [4].

Badiiy asar tilining xarakterli xususiyatlaridan biri til imkoniyatlari orqali tasvirlanayotgan obyektning o'quvchi ko'z oldida aniq, obrazli gavdalantirish, shaxs yoki predmetga aniq va o'rinli baho berish hisoblanadi. Tilni bunday keskin baho berish qudrati, ayniqsa, badiiy asar tili uchun muhimdir. Shu maqsadda tilning frazeologik boyligidan o'rinli foydalanish badiiy so'z ustalari uchun juda ham ahamiyatlidir. Badiiy adabiyotda yozuvchi tomonidan mohirona va o'rinli ishlatilgan iboralarning ko'pchiligini shaxs yoki narsa-buyumni xarakterlovchi mazmunga ega bo'lgan sifatli ma'noli iboralar tashkil etadi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. Тошкент, «Қомуслар бош таҳририяти», 1992. 378 б.
2. Рафиев А., Иборалар – нутқимиз кўрки. – Т.: Узбекистан, 1985. –22 б.
3. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. Toshkent, «Fan», 2007. 428 b.
4. Шомақсудов Ш., Долимов С., Долимов У. Кенг уйнинг келинчаги ёки ўзбек халқ матал ва ибораларининг энциклопедияси. – Т.: «Шарқ», 2020. – 640 б.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 7-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-7

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-7

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz